



UO'K:37.022

**TALABALARGA INGLIZ TILINI O'QITISHDA AQLIY HUJUM METODINI  
QO'LLASHNING O'RNINI (nofilologik ta'lim yo'nalishi misolida)****РОЛЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МЕТОДА МЕНТАЛЬНОЙ АТАКИ ПРИ ОБУЧЕНИИ  
СТУДЕНТОВ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ (на примере нефилологического образования)****THE ROLE OF USING BRAINSTORMING METHOD IN TEACHING ENGLISH  
LANGUAGE TO STUDENTS (as an example of non-philological education)****Abdujabborova Marg'uba Maxammadjon qizi<sup>1</sup>**<sup>1</sup>Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti talabasi**Yakubbayev Murodilla Ma'rufovich<sup>2</sup>**<sup>2</sup>Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti, Ilmiy ish va innovatsiyalar bo'yicha prorektor**Annotatsiya**

*Ushbu maqolada nofilologik yo'nalishda tahsil oluvchi talabalarda aqliy hujum va yalpi aqliy hujum metodlarining ahamiyati, zamonaviy ta'lim metodlari hamda darslar o'rganuvchilarga qay darajada samarali bo'lishi haqida so'z boradi.*

**Аннотация**

*В данной статье говорится о важности мозгового штурма и общих методов мозгового штурма для студентов-не филологов, современных методах обучения, а также о том, насколько эффективны занятия для студентов.*

**Abstract**

*This article illustrates the importance of brainstorming and general brainstorming methods for non-philological students, modern educational methods, and the extent to which lessons are effective for students.*

**Kalit so'zlar:** interaktiv metod, erkin ishtirok, rang-barang g'oyalar, mukammal o'zlashtirish, munozaraga kirishish.

**Ключевые слова:** интерактивный метод, свободное участие, разнообразные идеи, совершенное освоение, дискуссия.

**Key words:** interactive method, free participation, diverse ideas, perfect mastery, discussion.

**KIRISH**

Bugungi kunda chet tili (ingliz tili)ni o'qitish va o'rgatishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash barcha ta'lim muassasalarida izchillik va bardavomiylik bilan rivojlanib bormoqda shu bilan bir qatorda keng ko'lamda tatbiq qilinmoqda. Natijada barcha ta'lim dargohlarida mashg'ulot xonalarning tobora xilma-xilligi oshib o'quvchi va talabalarga boy imkoniyatlar yaratish bilan bir qatorda samarali o'qitish, o'rganish imkoniyatlarini keng ochmoqda. Butun dunyo bo'ylab ingliz tilini o'rganish soni kundan kun ortib borayotganligi sababli, muhim masala mavjud, barcha ta'lim muassasalarida mavjud resurs markazlari o'rganuvchilar uchun zarur qo'llanma materiallar zamonaviy metodlar asosida qamralgan manba shakllantirishni talab qiladi. Shuhbasiz, darsni ilmiy tashkil etishda muhim, hamda shu qatorda ko'chmas strategik poydevor qolipini yaratish ham zamon talabidir, bu esa o'z navbatida bir necha tamoyil va usullarga bo'linadi. Bundan maqsad, darsni yanada samaradorligini oshirishga qaratilgan e'tibordir. Professor-o'qituvchilar tomonidan talabalar ishtirokida mashg'ulot laboratoriyasida zamonaviy ta'lim metodlari asosida olib borilgan ta'lim jarayoni ikki sherikchilik asosidagi hamkorlik manbayi hisoblanadi va yakuniy qismda kutilayotgan natijani yuzaga olib chiqish esa bu o'qituvchining kreativlik mahoratini aniqlab beradi. Mashg'ulotga nisbatan turli yondashuv nafaqat fikrlash salohiyatni kuchaytirib

## TILSHUNOSLIK

qolmasdan, balki talabning sohaga oid ko'nikmalarini( gapirish, yozish, o'qish, eshitish) keskin rivojlantirishga qaratilgan. "Interaktiv metodlarning ko'nikmalar bilan uzviy bog'lanishi dars mashg'ulotlarining qiziqarli va bir birini to'ldirgan holda izohlanadi. Buning uzviyligini ta'minlash shak-shuhbasiz pedagog – o'qituvchilarning o'z vazifasiga nisbatan mas'uliyatlik hamda mahorat bilan yondashishni talab qiladi[1].

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Ko'pgina adabiyotlarda hozirgi kunda eng ommaviy interfaol ta'lim metodlar "Keys-stadi" (yoki "O'quv keyslari"), "Blist-so'rov", "Modellashtirish", "Ijodiy ish", "Muammoli ta'lim" ekanligi qayd etiladi. Ma'lumotlarga ko'ra, interfaol ta'lim strategiyalari qatoriga "Aqliy hujum", "Bumerang", "Galereya", "Zig-zag", "Zinamazina", "Muzyorar", "Rotastiya", "Yumaloqlangan qor" uslublar kiradi. Interfaol ta'lim metodlari tarkibidan interfaol ta'lim strategiyalarini ajratishda guruh ishini tashkil qilishga yondashuv ma'lum ma'noda strategik yondashuvga qiyoslanishiga asoslaniladi. Aslida bu strategiyalar ham ko'proq jihatdan interfaol ta'lim metodlariga tegishli bo'lib, ularning orasida boshqa farqlar yo'q. Interfaol grafik organayzerlar: "Baliq skeleti", "BBB", "Konseptual jadval", "Venn diagrammasi", "T-jadval", "Insert", "Klaster", "Nima uchun?", "Qanday?" va boshqalar.

Interfaol grafik organayzerlarni ajratishda bunday mashg'ulotlarda asosiy fikrlar turli grafik shakllarda yozma ko'rinishda ifodalanishiga asoslaniladi. Aslida bu grafik organayzerlar bilan ishlash ham ko'proq jihatdan interfaol ta'lim metodlariga tegishli. Quyida yangi interaktiv metodlardan bir nechtasini tahlil qilsak.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR***"Aqliy hujum" metodi*

Mazkur metod o'quvchilarning mashg'ulotlar jarayonidagi faolliklarini ta'minlash, ularni erkin fikr yuritishga rag'batlantirish hamda bir xil fikrlash inertsiasidan ozod etish, muayyan mavzu yuzasidan rang-barang g'oyalarni to'plash, shuningdek, ijodiy vazifalarni hal etish jarayonining dastlabki bosqichida paydo bo'lgan fikrlarni yengishga o'rganish uchun xizmat qiladi. "Aqliy hujum" metodining asosiy tamoyili va sharti mashg'ulotning har bir ishtirokchisi tomonidan o'rta tashlanayotgan fikrga nisbatan tanqidni mutlaqo ta'qiqlash, har qanday luqma va hazil-mutoyibalarni rag'batlantirishdan iboratdir. Bundan ko'zlangan maqsad o'quvchilarning mashg'ulot jarayonidagi erkin ishtirokini ta'minlashdir. Ta'lim jarayonida ushbu metoddan foydalanish o'qituvchining pedagogik mahorati va tafakkur ko'lamining kengligiga bog'liq bo'ladi. "Aqliy hujum" metodidan foydalanish chog'ida o'quvchilarning soni 10-15 nafardan oshmasligi maqsadga muvofiqdir.

*"Yalpi aqliy hujum" metodi*

Metod talabalar tomonidan yangi g'oyalarning o'rta tashlanishi uchun sharoit yaratib berishga xizmat qiladi. Har bir 5 yoki 6 nafar o'quvchilarni o'z ichiga olgan guruhlariga 15 daqiqa ichida ijobiy hal etilishi lozim bo'lgan turli xil topshiriq yoki ijodiy vazifalar belgilangan vaqt ichida ijobiy hal etilgach, bu haqida guruh a'zolaridan biri axborot beradi.

Guruh tomonidan berilgan axborot (topshiriq yoki ijodiy vazifaning yechimi) o'qituvchi va boshqa guruhlar a'zolari tomonidan muhokama qilinadi va unga baho beriladi. Mashg'ulot yakunida o'qituvchi berilgan topshiriq yoki ijodiy vazifalarning yechimlari orasida eng yaxshi va o'ziga xos deb topilgan javoblarni e'lon qiladi. Mashg'ulot jarayonida guruhlar a'zolarining faoliyatlari ularning ishtiroklari darajasiga ko'ra baholab boriladi.

Aqliy hujum va yalpi aqliy hujum metodining afzallik jihatlari quyidagilardir:

- guruhlarning har bir a'zosining faol bo'lishiga undaydi;
- ular tomonidan shaxsiy qarashlarning ifoda etilishini ta'minlaydi;
- guruhning boshqa a'zolarining fikrlarini tinglay olish ko'nikmalarini hosil qiladi;
- ilgari surilayotgan bir necha fikrni umumlashtira olish, shuningdek, o'z fikrini himoya qilishga o'rgatadi.

Ushbu metodlarni Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari institutining Xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi talabalari bilan "Chet elda o'qishning yaxshi va yomon taraflari" mavzusida munozara tashkil qilinganda ushbu metoddan qo'llanganda o'z samarasini ko'rsatdi, ya'ni o'z fikrini bildirishga qo'rqadigan talabalar o'zlariga nisbatan ishonchni his qilib, talabalar muzokaraga kirishib ketishdi.

### XULOSA

Pedagogik texnologiya o'z mohiyatiga shakl, metod va vositalar yordamida tashkil etilib, pedagogik faoliyat samaradorligini oshiradi hamda o'qituvchi o'rtasida o'zaro hamkorlikni qaror toptiradi. Bundan tashqari, o'quvchilar tomonidan o'quv predmetlari bo'yicha puxta bilimlarning egallanishini ta'minlaydi. O'quvchilarda mustaqil, erkin va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi. Hamda o'quvchilarning o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqara olishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratiladi. Shuningdek, pedagogik jarayonda demokratik va insonparvarlik g'oyalarning ustuvorligiga erishishni kafolatlashi zarur

Xulosa qilib aytganda, yuqori darajadagi umumiy-kasbiy madaniyatga, ijtimoiy faollikka, mustaqil fikrlashga, o'z vazifalarini qiyinchiliksiz hal qila olish qobiliyatiga ega bo'lgan yetuk mutaxassisni tarbiyalash uchun bugungi kunda pedagog o'qituvchilarimiz zamonaviy yangi innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishlari ta'lim-tarbiyaning sifat va samaradorligini oshirishning asosiy omili ekanligini, buni esa davr talab etayotganligini tushunib yetishlari lozim.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Jalolov Jamol. Chet til o'qitish metodikasi. Toshkent "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi,–2012.
2. Bekmurotova U. B. "Ingliz tilini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish" mavzusida referat. Toshkent—2012 yil.
3. Отабоева, М. Р. Chet tilini o'qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalaridan foydalanish va uning samaradorligi / М. Р. Отабоева. — Текст: непосредственный, электронный // Молодой ученый. — 2017. — № 4.2 (138.2). — С.36–37.—URL:
4. <https://moluch.ru/archive/138/39058/> (дата обращения: 27.04.2020) Xatamova N.Q., Mirzayeva M.N. "INGLIZ TILI DARSLARIDA 5. QO'LLANILADIGAN INTERFAOL USULLAR" (uslubiy qo'llanma), Navoiy, 2006, 40 bet.
5. Xoldorova M., Fayziyeva N., Rixsittilayeva F. "CHET TILINI O'QITISHDA YORDAMCHI VOSITALARDAN FOYDALANISH". Toshkent: Nizomiy nomidagi.TDPU,2005.
6. Hoshimov O'., Yoqubov I. "INGLIZ TILI O'QITISH METODIKASI" (o'quv qo'llanma) Toshkent: "Sharq" nashriyoti, 2003.